

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan
6-1 RUS 24 guruh talabalari ishtirokida “Korrupsiya - ta’lim
taraqqiyotining kushandasi” mavzusida
o’tkazilgan davra suhbatini

B A Y O N N O M A S I

03.04.2025 yil

Buxoro shahar

Qatnashdilar: Tyutor K.K.Zulfiyeva va 6-1 RUS 24 guruh talabalari.

KUN TARTIBI:

- 1.Korrupsiyasiz yashashni bolalikdan boshlang.
- 2.Korrupsiyaga yo’q deymiz.

ESHITILDI:

Talaba-yoshlarni korrupsiya, poraxo'rlik illatidan ogoh qilish maqsadida joriy yilning 3-aprel sanasida Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan profilaktika kuni munosabati bilan 6-1 RUS 24 guruh talabalari ishtirokida “Korrupsiya - ta’lim taraqqiyotining kushandasi” mavzusida davra suhbatini o’tkazildi.

1-masala yuzasidan K.K.Zulfiyeva so’zga chiqib davra suhbatini ochib berdi:

Bolaligimizdan buyuk maqsadlarga erishishni, bilimli va muvaffaqiyatli insonlar bo'lishni orzu qilamiz. Ko'p odamlar o'z maqsadlariga erishish yo'lida turli tahdidlar va to'siqlarga duch kelishadi va ko'plab yoshlar o'z maqsadlariga osonlik bilan erishish uchun noto'g'ri yo'l tutishadi. Bunday tahdidlardan biri korrupsiya. Korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan parokanda qiluvchi dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi ildiziga putur yetkazadi, inson huquqlari, qadr-qimmatini, hayotda tutgan o'rni va kelajagining buzilishiga olib keladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun qulay muhit hosil qiladi.

2-masala: Yurtimizda ham ushbu illatga chek qo'yish va uning ildizi bilan yo'qotish har bir fuqaroning zimmasiga yuklatilgan burch bo'lib, aqlini tanish yoshiga yetgan har bir kelajak avlodda unga qarshi immunitet hosil qilish va korrupsiya jamiyat taraqqiyoti kushandasi ekanligini uqtirib boorish lozim. Mamlakatimizda iqtisodiyotning turizm va sport kabi sohalarining rivojlanishi tobora kuchayib bormoqda, Olimpiya va Paralimpiya musobaqalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar tahsinga sazovor. Barchamiz korrupsion holatlarga “Yo’q” deya javob berish va kelajak avlodning sog'lom turmush tarzini korrupsiyasiz yaratishda barchamiz mas'uliyatni zimmamizga ola bilishimiz lozim.

QAROR QILINDI:

- 1.Tyutor K.K.Zulfiyeva va 6-1 RUS 24 guruh talabalari tomonidan berilgan

axborotlar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tyutor K.K.Zulfiyeva tomonidan o'tkazilgan "Korrupsiya - ta'lim taraqqiyotining kushandasi" mavzusidagi davra suhbat bayonnoma tuzib rasmiylashtirilsin va bu boradagi ishlar davom ettirilsin.



Bayonlashtiruvchi:

K.K.Zulfiyeva

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan
6-1 RUS 24 guruh talabarlari ishtirokida "Korrupsiya - ta'lim
taraqqiyotining kushandasi" mavzusida
o'tkazilgan davra suhbat
baynomasini asoslovchi fotolavhalar



